
TOSHLOQ TUMANIDA TADBIRKOR ELYORBEC KARIMOV 1 GEKTAR YER MAYDONIDA GUL PARVARISHLAMOQDA

Toshloq tumanida yerdan unumli foydalanib, dehqonchilik, bog'dorchilik orqali mo'maygina daromad topayotgan dehqonlarning safi kengayib bormoqda. Ular tomonidan qish faslida ham issiqxonalarda turli xildagi ko'chatlar parvarishlanib, hosili bozorlarimizga yetkazib berilmoqda.

Aytish mumkinki, keyingi yillarda tumanda gulchilik faoliyati ham rivojlanib bormoqda. Tajribali dehqonlar tomonidan qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan va qarovsiz yotgan yer maydonlari o'zlashtirib, issiqxonalar barpo etilmoqda.

Xususan, tadbirkor Elyorbek Karimov Toshloq tumanida 1 gektar yer maydonida issiqxona tashkil etib, 12 turdagi gul navlarini parvarish qilmoqda. Tadbirkor daromad topish bilan birga 15 nafarga yaqin xotin-qizlarni ish bilan band etdi.

Gulchilik ham tadbirkorlikning eng foyda keltiradigan turiga kiradi,-deydi tadbirkor Elyorbek Karimov. -Bu sohaga qiziqishim katta. Gullarga qancha mehr ko'rsatsang, kundan-kun yashnab boraverarkan. Avvaliga oddiy qiziqish bo'lib tuyulgan bu mashg'ulot endilikda asosiy daromad manbaimga aylandi. O'tgan yili 350 million so'm daromad topdim. Bu yil esa daromadni 2 barovarga oshirishga harakat qilmoqdamiz.

Buning uchun gul navlarini turini oshirib, gul bozorlariga yetkazib berilishi barobarida qo'shni mamlakatlarga ham eksport qilishni ham kengaytirmoqdamiz.

2024-05-14 10:04:37